Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
Raxmonova Aziza Tolibovna	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
Umarov Elshod G'ulom o'g'li	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
Икромов Ханифа Одилевна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



SOTISH JARAYONLARI HISOBINI BUXGALTERIYA HISOBINING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Eshmuradov Ulug'bek Tashmurotovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola qishloq xo'jalik korxonalari, xususan, agroklastarlarda sotish jarayoni nazariy jihatlarini hamda buxgalteriya hisobi schyotlarida sotish jarayonining aks ettirilishini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Xo'jalik jarayoni, sotish jarayoni, moliyaviy hisob, boshqaruv hisobi, sintetik schyot, analitik schyot, mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxi, sotish bahosi, transfert baho, moliyaviy natija.

Abstract: The article is devoted to the basis of improving the reflection of the sales process on the accounts of agricultural enterprises, in particular in agrocusters.

Key words: Economic process, implementation process, financial accounting, management accounting, synthetic account, analytical account, prime cost, sale price, transfer price, financial result.

Аннотация: Эта статья посвящена вопросам совершенствования отражения процесса реализации на счётах бухгалтерского учёта на сельскохозяйственных предприятиях, в частности в агрокластерах.

Ключевые слова: Хозяйственный процесс, процесс реализации, финансовый учёт, управленческий учёт, синтетический счёт, аналитический счёт, себестоимость, цена реализации, трансфертная цена, финансовый результат.

KIRISH

Qishloq xo'jalik korxonalari, xususan, agroklastarlarda buxgalteriya hisobi va hisobotini boshqaruv va moliyaviy hisob nuqtayi-nazaridan tatbiq etish, amaliyotga to'liq joriy etilishini ta'minlash bilan birga, buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida agroklastarlar xususiyatlarini hisobga olgan holda takomillashtirish hozirgi kundagi muammolardan hisoblanadi.

Shu munosabat bilan bugungi kunda mamlakatimiz amaliyotida nisbatan yaqinda paydo bo'lgan, ammo rivojlangan bozor munosabatlariga ega davlatlarda samarali shakllantirilgan agroklastarlarda hisob va hisobotni takomillashtirish dolzarb hisoblanadi. Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari mamlakatimizda agroklastarlarda sotish jarayoni hisobini takomillashtirish o'zining shakllanish jarayonida ekanligi va uning nafaqat amaliy jihatlarini, balki bir qator nazariy hamda uslubiy masalalari ham o'zining ijobiy yechimini kutayotganligini ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmini oshirish, ular sifatini yaxshilash, ichki va tashqi bozorni qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlashda ishlab chiqaruvchilarning moddiy manfaatlarini ta'minlash muhim ahamiyatga egadir. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarni to'liq daromadga olish, nobudgarchiliksiz yig'ishtirib olish, saqlash jarayonida yo'qotishlarni kamaytirish, o'z vaqtida mahsulotlarni maqbul baholarda sotish korxona boshqaruvining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ushbu vazifalarni bajarishda korxona boshqaruvini olingan yalpi hosil, sotilgan mahsulot (ish, xizmatlar) hajmi, sotilgan mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxi va sotishdan olingan tushum, sotilgan mahsulotlarning moliyaviy natijasi kabi buxgalteriya hisobi axborotlariga ehtiyoji seziladi.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotlar natijasi iqtisodiy adabiyotlarda va me'yoriy hujjatlarda sotish (realizatsiya) jarayonini hisobga olish masalalari tahlili, sotish (realizatsiya) atamasining mohiyati to'liq ochib berilmaganligini ko'rsatmoqda. "Realizatsiya (lot. realis – real): 1) ishlab chiqarilgan yoki qayta sotilgan tovarlar va xizmatlarni naqd pul olish bilan birga sotish; 2) rejani bajarish, natijani olish"¹, – deb ta'kidlangan.

1 www.google.com/search



Ba'zi manbalarda ushbu atamaning quyidagi ta'riflarini ham ko'rishimiz mumkin: "tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni realizatsiya qilish – mulkni, ishlab chiqarilgan tovarlarni va xizmatlarni sotish yoki ularni pul tushumlari bilan birga qayta sotish, kompensasiya uchun mulkni begonalashtirish"², "Realizatsiya – ishlab chiqarilgan yoki qayta sotilgan tovarlar va xizmatlarni tushum olish bilan birga sotishdir"³.

Rus olimi Paliy V. F. tomonidan realizatsiya jarayoniga quyidagicha tavsiflangan: "Realizatsiya jarayoni ikki tomonlama tartibdir. Bir tomondan, bu xaridorga sotish yoki ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish obyektni topshirishning aniq jarayonidir. Boshqa tomondan, bu sotuvchi yoki pudratchi tomonidan tranzaksiya uchun to'lov va pul olish jarayoni. Jarayonlar faqat chakana savdoda vaqtga to'g'ri keladi va hatto har doim ham emas" [6. 177b.].

Entoni R. va Rays J. tomonidan realizatsiya konsepsiyasida daromad tushunchasidan foydalangan holda, realizatsiya talqini "...sotishdan tan olinadigan daromad summasi. Sotish deganda tovar yoki xizmatlarni sotishdan tushgan pul tushumlari yoki da'volar (debitorlik qarzlari) tushuniladi", [2. 69b.] – deb ko'rsatib o'tishgan.

Bernsteyn L. A. esa realizatsiya jarayoniga quyidagicha ta'riflaydi: "Realizatsiya – pul bo'lmagan resurslar va huquqlarni pulga aylantirish jarayoni bo'lib, u buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda sotish hajmiga nisbatan eng aniq qo'llaniladigan, pul uchun aktivlar yoki pul olish da'volaridir" [3. 55b.].

R. Dusmuratov, B. Menglikulovlar ta'rificha, "Realizatsiya jarayoni xo'jalik mablag'larining doiraviy aylanishini yakunlar ekan, korxona o'z tayyor mahsulotini xaridorlarga va boshqa korxonalarga sotadi va natijada ulardan pul kelib tushadi. Shunday qilib, bu jarayonda tayyor mahsulot pul shakliga o'tadi" [4. 27b.].

A. Karimov, F. Islomov, A. Avloqulovlar ta'kidlashicha, "Sotish jarayoni xo'jalik mablag'lari aylanishining so'nggi bosqichi bo'lib, bu bosqichda korxona tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar xaridor va iste'molchilarga shartnomalar asosida yetkaziladi. Sotish jarayoni xo'jalik jarayonini tugallaydi va yangidan-yangi ta'minot jarayoni boshlanadi hamda bu jarayon oldingiga qaraganda kengroq tus oladi" [5. 27b.].

A. S. Sotivoldiyev "Mahsulot sotish bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik muomalalarining majmuyi sotish jarayoni deyiladi" [7. 21b.] deb sotish jarayoniga ta'rif bergan.

B. A. Xasanov, A. A. Xashimov, Z. A. Pardayevalar ta'kidlashicha, "...sotish (realizatsiya) jarayonida ishlab chiqarilgan tovar mahsulotlari xaridorlarga jo'natiladi va ular qabul qilib olgan mahsulotlari uchun shartnoma narxida mol yetkazib beruvchilarga pul to'lanadi" [8. 46b.].

K. B. Urazov, M. E. Po'latovlar esa sotish jarayoniga quyidagicha ta'rif berishgan: "Sotish jarayoni deganda, ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan tayyor mahsulotlarni, bajarilgan ishlarni, ko'rsatilgan xizmatlarni xaridorlarga sotish tushuniladi. Ushbu jarayonda olingan daromad ham tarmoq xususiyatiga xos ravishda nomlanadi. Masalan, ishlab chiqarish sohasida tayyor mahsulotlarni sotishdan olingan daromad, savdoda tovarlarni sotishdan olingan daromad, qurilishda bajarilgan ishlardan olingan daromad, xizmat sohasida ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromad deb ataladi" [9. 20-21b.].

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, ilmiy-uslubiy adabiyotlarda ko'proq sotish jarayoni o'zining mohiyati, mahsulot (ish, xizmat) sotishning buxgalteriya hisobini metodologik muammolarni hal etilishiga qaratilgan bo'lib, boshqaruv hisobining vazifasi bo'lgan har bir sotilgan (realizatsiya qilingan) mahsulot (ish, xizmat)lar bo'yicha moliyaviy natijani aniqlash va iqtisodiy samarasini aniqlash masalalariga e'tibor qaratilmay qolgan.

METODOLOGIYA

Mavzuga oid respublikamizda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, soha iqtisodchi olimlarining ilmiy ishlari, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish va sotishni aks ettiruvchi statistik ma'lumotlar hamda ilmiy-tadqiqot natijalarining materiallaridan foydalanildi. Ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda qo'llaniladigan kuzatish, guruhlash, tahlil qilish va boshqa usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan tadqiqotlar tahlili shu ko'rsatmoqdaki, qishloq xo'jalik korxonalari kamida 8 turdan boshlab 18-22 turgacha bo'lgan mahsulot (ish, xizmat)larni sotishadi. Bu sotiladigan mahsulot (ish, xizmatlar)lar bo'yicha axborotlar amaldagi buxgalteriya hisobini yuritish metodologiyasiga asosan tegishli sintetik schyotlarda va boshqaruv hisobining segmentar hisobotlarida umumlashtiriladi. Ushbu axborotlar realizatsiya qilingan mahsulot (ish, xizmatlar)lar bo'yicha umumiy ma'lumotlar bo'lib, bu ma'lumotlar har sotilgan mahsulot (ish, xizmatlar) bo'yicha moliyaviy natijani aniqlash imkonini bermaydi. Bundan tashqari, mahsulot (ish, xizmatlar) sotish xarajatlari korxonalarda umumiy holda 9410-"Sotish xarajatlari" sintetik schyotida hisobga olib borilib, har bir sotilgan mahsulot (ish, xizmatlar) moliyaviy natijasini aniqlashda ular tannarxga kiritilmaydi.

Mazkur muammolarni hal etishda, sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni mahsulot (ish, xizmat)larni turlari bo'yicha taqsimlash, har bir sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar bo'yicha moliyaviy natijani va iqtisodiy samaradorlikni aniqlash lozim. Buxgalteriya hisobining ushbu axborotlari boshqaruv qarorlari samaradorligini oshirib, sotish jarayonini tartibga soladi.

2 http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_61748

3 <http://www.glossary.ru/cgi-bin/g>



Qishloq xo'jalik korxonalari, xususan, agroklasterlar faoliyatida sotish jarayoni hisobini takomillashtirish asosida har bir sotilgan mahsulot (ish, xizmat) turlari bo'yicha moliyaviy natijani aniqlash va iqtisodiy samaradorlikni hisoblash bo'yicha axborotlariga ko'ra qabul qilinadigan boshqaruv qarorlari natijadorligini oshirish. Bunda, sotish bilan bog'liq xarajatlarni sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar o'rtasida taqsimlashlash metodi-kasini takomillashtirish, analitik schyotlarni tashkil etish va yuritish hamda sintetik hisobni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar beriladi.

Mamalakatimizda iqtisodiyotni jadal rivojlantirish natijasida qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish hajmi barqaror oshib bormoqda (1-jadval).


1-jadval: O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi*, 2018-2022-yillarda⁴

№	Ko'rsatkichlar	Yillar					2022-yil 2018-yilga nisbatan o'zgarishi	
		2018	2019	2020	2021	2022	mutlaq	nisbiy, %
1.	Qishloq xo'jaligi mahsuloti, trln. so'm	187,4	216,3	250,3	303,4	345,2	157,8	184,2
	o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da	100,2	103,3	102,7	103,9	103,6	3,4	103,4
	shu jumladan:							
2.	Dehqonchilik, trln. so'm	98,4	111,9	123,9	152,1	178,9	80,5	181,8
	o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da	95,8	104,8	103,2	104,3	103,8	8	108,4
3.	Chorvachilik, trln. so'm	89,0	104,4	126,4	151,3	167,2	78,2	187,9
	o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da	105,7	101,6	102,1	103,5	103,3	-2,4	97,7

*Yillik statistik ma'lumotlar asosida muallif hisob-kitobi

Ushbu 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, respublikamiz bo'yicha 2022-yilda 2018-yilga nisbatan qishloq xo'jalik mahsulotlari tarkibida sezilarli o'zgarish bo'lgan, ya'ni 2018-yilda jami mahsulotni 47,5 foizi chorvachilik mahsuloti bo'lgan bo'lsa, 2022-yilda 48,4 foizni tashkil etgan. Respublika bo'yicha qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 84,2 foizga yoki 157,8 trln. so'mga oshgan.

Qishloq xo'jalik korxonalari, shu jumladan, agroklasterlarda xo'jalik faoliyati quyidagi uch bosqichdan iborat: ta'minot, ishlab chiqarish va sotish. Ushbu jarayonlar barchasi xo'jalik faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir-biri bilan uzviy bog'langan. Ushbu jarayonlarni bir-biri bilan bog'liqligi qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini yaxshi tashkil etilganligiga bog'liq bo'ladi. Bu jarayonlarni amalga oshirilishini quyidagi 1-rasmda ko'rishimiz mumkin.




1-rasm: Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatida xo'jalik jarayonining ketma-ketligi

⁴ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2>



Qishloq xo'jaligi korxonalari, shu jumladan, agroklastlar faoliyatida sotish jarayoni sotish jarayonini quyidagi ikki guruhga ajratishimiz mumkin (2-rasm):



2-rasm: Qishloq xo'jaligi korxonalari, shu jumladan, agroklastlar faoliyatida sotish jarayonining guruhlanishi

Mahsulot (ish, xizmat)lar hisobini buxgalteriya schyotlarida hisobga olishning tahlili shuni ko'rsatadiki, xo'jaliklarda sotilgan har bir mahsulot turi bo'yicha moliyaviy natijalarni aniqlash, ularni har birining iqtisodiy samaradorligini aniqlash imkonini bermaydi, natijada mahsulot ishlab chiqarishda mahsulot tannarxini boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilish imkoniyatini cheklaydi.

Shuning uchun, mahsulot (ish, xizmat)lar sotishda boshqaruv hisobining tamoyillaridan kelib chiqqan holda, 9410–“Sotish xarajatlari” schyoti bo'yicha har bir mahsulotni sotish xarajatlari hisobi bo'yicha alohida analitik schyotlar ochish, umumiy bo'lgan sotish xarajatlarini esa hisobot davrining oxirida sotilgan mahsulotlar tannarxiga mutanosib ravishda taqsimlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Agroklastarlarni o'z ichki bo'linmalariga mahsulot (ish, xizmat)lar sotish jarayonida sotish xarajatlarini alohida hisobga olib bormaydi, bunday xarajatlar bo'lsa, ishlab chiqarish bo'linmasi xarajatlari tarkibida hisobga oladi. Xo'jaliklar o'z ishlab chiqarish bo'linmasiga mahsulot (ish, xizmat)larni tannarxida sotadi va foyda yoki zarar ko'rmaydi.

Agroklastarlarda o'z ichki bo'linmalari va xodimlariga mahsulot (ish, xizmat)lar sotish jarayonida sotiladigan mahsulot (ish, xizmat)ni subyekt tomonidan belgilangan transfert bahoda sotishni taklif qilamiz. Bunda, subyekt o'zining ichki bo'linmalariga sotiladigan mahsulot (ish, xizmat)larga transfert baho o'rnatishi va buni o'zining “Hisob siyosatida” aks ettirishi lozim.

Taklifimiz bo'yicha agroklastarlarni o'z ichki bo'linmalariga mahsulot (ish, xizmat)lar sotish jarayonida, sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar buxgalteriya schyotlarida quyidagicha aks ettirish taklif etiladi:

1. Debet 9110 – “Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi” schyoti.

Kredit 2810 – “Ombordagi tayyor mahsulotlar” schyoti – Sotilgan mahsulot tannarxi hisobdan chiqarilganda.

2. Debet 2010 – “Asosiy ishlab chiqarish” schyoti.

Kredit 9010 – “Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar” schyoti – Sotilgan mahsulotning o'rnatilgan transfert bahodagi qiymatiga.

3. Debet 9010 – “Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar” schyoti.

Kredit 9910 – “Yakuniy moliyaviy natija” schyoti – Sotilgan mahsulotdan olingan daromad yakuniy moliyaviy natijaga o'tkazilganda.

4. Debet 9910 – “Yakuniy moliyaviy natija” schyoti.

Kredit 9110 – “Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi” schyoti – Sotilgan mahsulot tannarxi yakuniy moliyaviy natijaga o'tkazilganda.

5. Sotilgan mahsulot (ish, xizmat) bo'yicha moliyaviy natija aniqlanganda:

a) Foyda bo'lsa:

Debet 9910 – “Yakuniy moliyaviy natija” schyoti.

Kredit 8710 – “Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)” schyoti

b) Zarar bo'lsa:

Debet 8710 – “Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)” schyoti.

Kredit 9910 – “Yakuniy moliyaviy natija” schyoti.

Mahsulot (ish, xizmat)lar sotish hisobida, buxgalteriya schyotlari asosida sotilgan har bir mahsulot turi bo'yicha moliyaviy natijalar va iqtisodiy samaradorligini aniqlash, har bir mahsulot ishlab chiqarishda mahsulot hajmi va tannarxini boshqarish bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Shuning uchun, mahsulot (ish, xizmat)lar sotishda boshqaruv hisobining tamoyillaridan kelib chiqqan holda, 9410 – “Sotish xarajatlari” schyoti bo'yicha har bir mahsulotni sotish xarajatlari hisobi bo'yicha alohida



analitik schyotlar ochish, umumiy bo'lgan sotish xarajatlarini esa hisobot davrining oxirida sotilgan mahsulotlar tannarxiga mutanosib ravishda taqsimlash taklif qilinadi.

Takliflarimizni amaliyotda qo'llanilishi agroklastarlarda ishlab chiqariladigan va o'z ichki bo'linmalariga hamda xodimlariga sotiladigan mahsulotlarga transfert baholar o'rnatiladi, transfert bahoni o'rnatilishi ishlab chiqarish bo'linmalarida ishlab chiqarish samaradorligini aniqlash imkonini beradi, xo'jalik boshqaruvi tomonidan ular faoliyatiga baho beriladi, bu o'z navbatida ishlab chiqarish bo'linmalarining xarajatlarni nazorat qilish va mahsulot tannarxini pasaytirishga olib keladi, har bir mahsulot ishlab chiqarishda mahsulot tannarxini boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilish imkoniyati yaratilib, mahsulot (ish, xizmat) tannarxini pasaytiradi va agroklastarlarni barqaror rivojlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar va xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom. <https://lex.uz/docs/264422>
2. Anthony Robert N., S. Reece James. Accounting Principles (6 th Edition) //A. I. T. B. S. Publishers, 2005. – 696 pages. ISBN: 81853860802.
3. Бернштейн Л. А. Анализ финансовой отчетности// Пер. с англ. / научн. ред. перевод чл. корр. РАН Елисеєва И. И. Гл. редактор серии проф. Соколов Я. В. – М.: Финансы с статистика, 2003. -623 с. ISBN: 5-279-01555-5
4. Dushmuratov R. D., Menglikulov B. Yu. Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi va statistika asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2014. – B. 27.
5. Karimov A. A., Islomov F. R., Avloqulov A. Z.. Buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.: "Sharq" NMAK, 2004. – B. 28.
6. Paliy V. F. Teoriya buxgalterskogo ucheta: sovremennye problemy. – M.: INFRA-M, 2007. -512 s. ISBN (EAN): 5-85428-177-5
7. A. S. Sotivoldiyev. Zamonaviy buxgalteriya hisobi. 3-tom. Darslik. –T.: O'zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi, 2004, 21-bet.
8. B. A. Xasanov, A. A. Xashimov, Z. A. Pardayeva. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Mustaqil ta'lim uchun ko'rgazmali o'quv qo'llanma. –T.: "YANGI NASHR", 2011. – 46 b.
9. Urazov K. B., Po'latov M. E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020-y. – B. 20-21.
10. Ulugbek, T. E., & Abdumumin, I. A. (2014). Improvement Accounting Of Sales Agricultural Products On Farm Enterprises. SEA-Practical Application of Science, (5), 649-654.
11. Tashmuratovich, E. U. B. (2023). Agroklastlar sotish jarayonlarida segmentar hisobotlarning ahamiyati. Nauchnyy Fokus, 1(7), 790-795.
12. Eshmuradov, U. (2014). The methodology of the primary account sales of agriculture products. In Construcții identitare. Reverberații ale modelului cultural francez în context european și universal. (Vol. 2, pp. 113-118).
13. Иштурдиев, X. A. (2023). Совершенствование учета финансовых результатов в агрокластере. Научный Фокус, 1(7), 700-708.
14. Eshmuradov, O. T., & Alikulov, A. I. (2022). Evaluation and accounting of material working cash in agrocusters as an object of accounting. Academic research in educational sciences, 3(Special Issue 1), 102-109.
15. Alikulov, A. I., & Abdushukurov, K. B. (2023). Improving the analysis of financial results in agrocusters. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(9), 310-316.
16. Alikulov, A. I. (2010). Xarajatlari hisobi va tahlilining nazariy hamda amaliy masalalari. Monografiya." Fan va texnologiya", -Toshkent, 196.
17. Alikulov, A. I. (2010). Modern trends in development of cotton production and processing chain in Uzbekistan. Perspectives of Innovations, Economics and Business, PIEB, 6(3), 75-76.
18. Khasanov, B. A., Eshboyev, U. T., Hasanova, R. B., Mukumov, Z. A., Alikulov, A. I., & Djumanova, A. B. (2019). Calculation of the invested capital profitability in the financial condition analysis process. International Journal of Advanced Science and Technology, 28(14), 42-48.
19. Olim, M., Ablakulovich, I. G., & Shukurov, I. S. (2022). Cluster System And Its Organizational Mechanisms. The Journal of Economics, Finance and Innovation, 1(1), 1-11.
20. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2>.
21. www.google.com/search.
22. http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_61748.
23. <http://www.glossary.ru/cgi-bin/g>.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.